



SCIENCE TIME

TARJIMADA RADIFNI AKSLANTIRISH

SAPAYEVA FERUZA DAVLATOVNA

Nukus DPI O'zbek adabiyoti kafedrası professori v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

E-mail: feruzasapayeva86@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Maxtumqulining bir she'riining o'zbek tiliga tarjimalarini qiyosiy tahlil qilish misolida she'riy tarjimada radif ko'chirish usulining ahamiyati muhokama qilinadi. Maxtumquli asarlaridan J.Sharipov, M.Kenjabeq, E.Ochilov, A.Jumaev, J.Zulpiyev, N.Muhammad kabi o'zbek tarjimonlarining tarjimalari tadqiqot obekti sifatida keltirilgan. Shuningdek, maqolada she'riy tarjimada radifni to'g'ri yetkazishning ayrim muammolari va yechimlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Mag'timguliy, she'riy tarjima, radif, usul, yaqin va uzoq tillardan tarjima, mahorat, so'z, ibora, asl til, ko'zgu til.

Аннотация: В статье рассматриваются методы передачи радифа в стихотворном переводе на примере сопоставительного анализа узбекских переводов одного стихотворение Махтумкули. Переводы узбекских переводчиков произведений Махтумкули как Ж.Шарипов, М.Кенжабек, Э.Очиллов, А.Жумаев, Ж.Зулпиев, Н.Мухаммад излагается как объект исследование. А также, в статье анализируется некоторые проблемы и решения правильного передача радифа в стихотворном переводе.

Ключевые слова: Махтумкули, стихотворный перевод, радиф, метод, перевод с близких и дальних языков, мастерство, слово, словосочетание, язык оригинала, язык перевода.

Annotation: The article discusses the significance of the method of transferring the radif in poetic translation on the example of a comparative analysis of Uzbek translations of one poem by Magtymguly. Translations of Uzbek translators of Makhtumkuli's works such as Zh. Sharipov, M. Kenzhabek, E. Ochilov, A. Zhumaev, Zh. Zulpiev, N. Muhammad are presented as an object of study. And also, the article reflects on some of the problems and solutions for the correct transmission of the radif in poetic translation.

Key words: Magtymguly, poetic translation, radif, method, translation from close and distant languages, skill, word, phrase, original language, target language.

KIRISH.

Ma'lumki, she'riy takrorning bir ko'rinishi bo'lgan radif zimmasiga kattakichik ko'plab vazifalar yuklangan: u bayt va bandlarni o'zaro bog'lab, she'riy yaxlitlikni vujudga keltiradi; ma'noni kuchaytirishga xizmat qiladi; ohangni ro'yobga chiqarishda faol ishtirok etadi. "Radif ko'p hollarda shoirning asosiy muddaosini bildirib, takrorlanib kelishi natijasida (naqoratday) fikrni ta'kidlab, kuchaytirib beradi... Shoirlar radif tanlashdan oldin bu so'zning o'z maqsadlariga qanchalik muvofiq kelishiga e'tibor berganlar. Radif-so'zning chiroyli jaranglashi,



SCIENCE TIME

vaznga tushadigan bo'lishi ham hisobga olingan" [1, b.211]. Shuning uchun she'rning ta'sirchanligi va jarangdorligini oshirishda, ma'noni kuchaytirishda radifning roli beqiyos. "Ko'pincha baytdagi fikrning asosiy yuki shu poetik element zimmasiga tushadi, shoirlar fikrda nimaga ko'proq urg'u bermoqchi bo'lsalar, o'sha so'zni radifga oladilar" [2, b.133]. Lekin uni tarjimada aks ettirishning hamisha ham iloji bo'lavermaydi. Natijada ko'pincha uning mazmuni misralar qatiga singdirib yuboriladi. Saqlab qolinganda esa hamisha ham muvaffaqiyatli chiqavermaydi: yo o'quvchiga tushunarsiz, yo asliyatga nomunosib so'zlar qo'llanadi. Bu esa she'r mazmunini xiralashtiradi, jarangdorligini tushirib, ta'sirchanligini yo'qqa chiqarishi mumkin. "Radifni berish tarjimon uchun jiddiy qiyinchilik, qolaversa, ba'zan hal qilib bo'lmaydigan chigalliklar tug'diradi. Shu sababli ayrim tarjimonlar uni aks ettirmaydilar. Holbuki, radif she'rda faqat shakliy bezak emas, balki u katta ma'no tashiydi, asarning ta'sir kuchini, she'rning jarangdorligini oshirishga xizmat qiladi" [3, b.193].

METODLAR.

N.Komilov, S.Olimov, E.Ochilov kabi tarjimashunoslarning she'riy asarlar tarjimasida radifni aks ettirish bilan bog'liq tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, tarjima amaliyotida radif tarjimasining quyidagi usullari mavjud: [4]

1. Radifni tarjima qilmay, aynan ko'chirish. Buning uchun radif bo'lib kelgan so'z tarjima tilida ham mavjud bo'lishi va asliyat tilidagi ma'noni ifodalashi lozim bo'ladi – faqat shundagina uni "tarjimasiz" tarjima qilish mumkin. Ayni jihatdan, bu usulning qo'llanish doirasi birmuncha cheklangan [2,b.141]. Yaqin tillardan va leksik umumiyliги ko'p bo'lgan [5, b.154] tillardan tarjimada bu usul qo'l keladi.

2. Radif bo'lib kelgan so'z yoki so'z birikmasini tarjima orqali berish. Bu usul barcha tillar, xususan, uzoq tillardan tarjimada ko'p qo'llanadi.

3. Asar ichida kelgan boshqa bir so'zni radifga chiqarish yo'li bilan tarjima qilish. Chunki radif sifatida qo'llangan so'z yoki so'z birikmasi barcha baytu bandlarga ham birday muvofiq tushmasligi mumkin. Bu holda she'rning umumiy



SCIENCE TIME

ruhiga muvofiq keladigan va uning yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladigan boshqa so'z (yoki so'zlar) radifga chiqariladi.

4. Radifli she'rni radifsiz tarjima qilish. Chunki boshqa tilda radifni aks ettirishning hamisha ham imkoni topilmaydi. Bunday holda tarjimonlar radif ifodalagan ma'noni asar ichiga singdirib yuboradilar.

5. Radifsiz she'rni radifli qilib tarjima qilish. She'riy tarjima amaliyotida oz bo'lsa-da, ayni usul ham uchrab turadi. O'z-o'zidan, bu tarjimaning muvaffaqiyatiga xizmat qiladi.

6. Radif bo'lib kelgan so'zlarning bir qismini aynan qoldirib, bir qismini tarjima qilib olish. Bunda radifni tashkil etgan so'zlarning bir qismi tarjima o'quvchisiga ham tushunarli bo'lganligi uchun aynan ko'chirilib, tushunarsiz qismi tarjima qilinadi.

7. Tarjima o'quvchisiga tushunarli-tushunarsiz ekanligidan qat'i nazar radifni aynan qoldirish.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ.

Maxtumquli she'rlari tarjimasida radif tarjimasida bilan bog'liq ushbu usullarning barchasini uchratish mumkin. Yaqin tillardan tarjimada radif ko'pincha muammo tug'dirmaydi, chunki radif bo'lib kelgan so'z yoki ibora tarjima tilida ham mavjud bo'ladi. Shunga qaramay, ba'zan muayyan tilning o'zigagina xos so'zlar radifga olinadiki, ularni tarjima tiliga aynan o'tkazish matnning tushunarsiz bo'lishiga olib keladi. O'z-o'zidan, o'zbek va turkman tillari yagona oilaga mansubligi va o'zaro yaqinligidan radiflar asosan aynan ko'chgan, lekin tarjimonlar bu imkoniyatni ba'zida suiiste'mol qilib, sof turkmancha, o'zbek o'quvchisiga notanish so'zlarni ham tarjimasiz qoldiradilar. Shoir she'rda o'zi urg'u bergan so'zni radifga chiqarishini hisobga olsak, radifki tushunarsiz bo'lgach, she'rning mohiyati va asosiy g'oyasi ham o'quvchiga yetarli darajada ochilmay qoladi. Masalan, Maxtumquli ijodida "do'ndi" (aylandi), "belli" (belgili, ma'lum) so'zlari radif bo'lib kelgan bir qator she'rlar borki, ular tarjimasida bu turkmancha so'zlarning radif holida aynan qoldirilishi o'zini oqlamagan.



SCIENCE TIME

Jumladan, J.Sharipov “do‘ndi” radifli ikkita she‘r tarjimasida mazkur so‘zni aynan qoldirgan. Tarjimonning bu ishi G‘.Salomov tomonidan ham tanqid qilingan edi: “Do‘ndi” she‘rining nomidanoq izoh boshlangan: bu aylandi, o‘tdi, bo‘ldi degani ekan. Demak, uni – **o‘zbyekchalashtirish** kerak, vassalom. Ehtimol, bu she‘rga “aylandi”, “o‘tdi”, “bo‘ldi” so‘zlari mos kelmas. Bunday taqdirda izlanishni yana davom ettirish, muqobil va muvofiq so‘z topmaguncha qo‘ymaslik kerak. Butun boshliq o‘zbek tilidan turkmancha bitta “do‘nmoq” so‘zining ma‘nosini qoplaydigan kalima topilib qolar...

Asliyatda:

*Тылла тагтда гапылар,
Дөвүр айланып япылар,
Ишан, молла, пир, сопулар,
Илата азара дөнди [6, б.240].*

*Tilla taxtida qopilar,
Davr aylanib yopilar,
Eshon, mulla, pir, so‘filar
Elatga ozora do‘ndi [7, b.133].*

Qopilar so‘zi “eshik” ekanligi aytilib, to‘rtinchi misraga bus-butun – “*Elga ozor berguvchiga aylandi*” deb izoh beriladi” [8, b.73-74].

“Рыган егленmez” she‘rining o‘zbek tilida J.Sharipov, M.Kenjabek, A.Jumaev, N.Muhammad va E.Ochilovlar tomonidan amalga oshirilgan 5 tarjimasi mavjud. She‘rda radif bo‘lib kelgan “eglenmez” so‘zini J.Sharipov “to‘xtamas”, M.Kenjabek va N.Muhammadlar “aylanmas”, A.Jumaev “kelgaydir”, E.Ochilov “qolmagay” deb tarjima qilishgan. “Eglenmek” so‘zi turkman tilida bir yerda to‘xtab qolmoq, biror joyda bo‘lmoq, kechikmoq, ushlanib qolmoq ma‘nolarini bildiradi [9, b.791]. She‘rda esa u hamma narsaning o‘tkinchiligi, biror narsaning boqiy qolmasligi, o‘tganning ortga qaytmasligi ma‘nolarida kelgan. Chunonchi, asliyatda:

*Билбил хужүм эйлэн ховалы баглар,
Билбил сенден гидер, пыган эгленmez!*



SCIENCE TIME

*Ягъишли, ягмырлы, үмүрли даглар,
Силлер сенден гидер, думан эгленмез! [6,2. b.34].*

J.Sharipov tarjimasasi:

*Bulbul sayrab turgan havoli bog'lar,
Bulbul sendan ketar, fig'on to'xtamas.
Tumanli, yomg'irli, oq qorli tog'lar,
Sellar sendan ketar, tuman to'xtamas [7, b.296].*

Shoir aytayaptiki: “Ey bulbullar yoprilgan bahavo bog'lar, bir kuni bulbul sizdan ketadi-yu, ularning fig'oni ham qolmaydi. Ey tumanli, yomg'irli, oppoq qorli tog'lar, bir kuni sellar sizdan ketadi-yu, tuman ham qolmaydi”. Tarjimada esa “Bulbul sendan ketsa-da, fig'oni hech qachon to'xtamaydi, sellar sendan ketsa-da, tuman sira to'xtamaydi” degan aks ma'no kelib chiqqan.

M.Kenjabeq tarjimasasi:

*Bulbul navo qilgan havoli bog'lar,
Bulbul sendan ketar, fig'on aylanmas.
Yoqimli, yomg'irli, umrli tog'lar,
Sellar sendan ketar, gumon aylanmas.*

N.Muhammad tarjimasasi:

*Bulbul makon etgan, xushhavo bog'lar,
Bulbul sendan ketar, fig'on aylanmas.
Oppoq qor, yomg'irli, ey, baland tog'lar,
Sellar sendan ketar, tuman aylanmas.*

A.Jumaev va J.Zulpiyevlar tarjimasasi:

*Bulbul makon etgan, havoli bog'lar,
Bulbul sendan ketar, fig'on kelgaydir!
Yog'ishli, yomg'irli, tumanli tog'lar,
Sellar sendan ketar, tuman kelgaydir!*

E.Ochilov tarjimasasi:

*Bulbul egallagan havoli bog'lar,
Bulbul sendan ketar, fig'on qolmagay.
Qorli-yu yomg'irli, tumanli tog'lar,
Sellar sendan ketar, tuman qolmagay.*

Ko'rinib turganidek, bu yerda “qolmagay” radifi she'r mazmuniga hammadan muvofiq kelayapti. Garchi “to'xtamas” radifi ayni bandda o'zini



SCIENCE TIME

oqlagan bo‘lsa-da, barcha bandlarda ham u o‘rniga tushmagan. Chunki radif uchun tanlangan so‘z she‘rning barcha baytu bandlari uchun boshdan-oyoq muvofiq kelishi kerak – bir o‘rinda muvofiq kelib, boshqasiga tushmasa, radif muvaffaqiyatsiz tanlangan bo‘ladi. “To‘xtamas” so‘zining to‘xtab qolmaydi – o‘tib ketadi degan ma‘nosi bilan birga, tinimsiz davom etadi degan ma‘nosi ham bor, xuddi shu narsa she‘rning boshidanoq radifning noto‘g‘ri qo‘llanganligini namoyon etgan. Misol uchun, quyidagi misralarda “qolmagay” ma‘nosi taqozo qilingani holda “to‘xtamas” radifi qo‘llanib, mazmunni buzgani yaqqol ko‘rinib turibdi:

Sellar sendan ketar, tuman to‘xtamas (?)

Bahor sendan ketar, zamon to‘xtamas” (?)

Chaman sendan ketar, sayron to‘xtamas (?)

Og‘izdan til ketar, zabon to‘xtamas (?)

Ko‘rinib turganidek, “ketar” so‘zidan kelgan barcha jumlar ayni so‘zning mantiqiy davomi bo‘lib kelgan va uni yanada kuchaytiruvchi so‘zni talab qilayapti. Bu so‘z esa – “qolmagay”.

“Aylanmas” radifi esa ancha muvaffaqiyatsiz tanlangan. “Besh kundan yuqori mehmon aylanmas” singari misralarda u mavhumlik va g‘alizlikni keltirib chiqargan. “Besh kundan ortiqcha mehmon qolmagay” desa ham tushunarli, ham o‘zbek tiliga muvofiq bo‘ladi. Bu radif faqat oxirgi misrada muvaffaqiyatli chiqqan (“Og‘izdan til ketar, zabon aylanmas”). Radiflar ichida eng nomuvofiqi – “kelgaydir”. U she‘r ma‘no va g‘oyasiga ham zid. U banddan-bandga o‘tgan sari she‘r mazmunini buzib boravergan:

Bahor sendan ketar, zamon kelgaydir! (?)

Davr sendan ketar, davron kelgaydir! (?)

Og‘izdan til ketar, zabon kelgaydir! (?)

Agar J.Sharipov va M.Kenjabeq tanlangan radiflar ba‘zi o‘rinlarda muvofiq kelib, ba‘zi o‘rinlarda muvofiq kelmasa, A.Jumaev va J.Zulpievlar qo‘llagan radif she‘rga boshdan-oyoq muvofiq tushmagan, chunki u asliyatga mutlaqo zid: “qolmagay” ma‘nosidagi so‘zga “kelgaydir” qanday qilib ham muvofiq kelsin?!



SCIENCE TIME

Chunonchi, she'rdagi bu dunyoga kelgan mehmon besh kundan ortiq qolmaydi ma'nosidagi misrani "Besh kundan so'ng yangi mehmon kelgaydir!" deb ajabtovur tarzda o'zbekchalashtirishgan. Yoki "Ag'izdan til ketar, z'iban eglenmez!" misrasini "Og'izdan til ketar, zabon kelgaydir!" deb mantiqsiz tarjima qiladilar: og'izdan til ketsa, zabon kelar emish, axir, zabon ham fors-tojikchada til deganiku? Holbuki, shoir bir kuni tiling tortilib, aylanmay qoladi demoqchi. Faqat bu fikrni sinonimlar vositasida takror ifodalagan.

Ko'rinib turibdiki, birgina she'r to'rt xil radif bilan tarjima qilingan, ulardan faqat "qolmagay" radifi asliyatga muvofiq.

XULOSA.

Ma'lum bo'ladiki, radifni to'g'ri aks ettirish she'riy tarjima muvaffaqiyatini ta'minlaydigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tarjimada topib qo'llanilgan radif she'rning husnini ochib, jarangdorligini ta'minlasa, o'rniga tushmagan, noto'g'ri tanlangan radif she'rni badiiy jozibadan mahrum qilibgina qolmay, uning mazmunini ham xiralashtiradi, ba'zida hatto shoir ko'zda tutgan ma'noning xato yoki teskari talqin qilinishiga ham sabab bo'ladi. Bu esa radif tarjimasiga mas'uliyat bilan yondashish kerakligini taqozo qiladi. Bugina emas. "Radif Sharq she'riyatining uslubiy unsurlaridan biridir. Tarjimada bu poetik priyomni qayta aks ettirish muammolarini tadqiq qilish muallif uslubini saqlab qolish masalasini o'rganishning ajralmas qismi hisoblanadi... Muallif uslubi aks etmagan tarjimani to'laqonli tarjima hisoblash mumkin bo'lmaganidek, radifi umuman qayta yaratilmagan tarjima asarida muallif uslubi saqlangan, deyish ham qiyin" [2, b.135;152].

ADABIYOTLAR:

1. Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари (Поэзия ва таржима). – Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 211.
2. Олимов С. Маснавий таржимасида радиф // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 5-китоб. – Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 133.



SCIENCE TIME

3. Шомухамедов Ш. “Шохнома” таржимаси ҳақида сўз // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 4-к. – Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1978. – Б. 193.
4. Комилов Н. Ғазал таржимаси ҳақида баҳс // Дўстлик кўприклари. – Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 144–220; Олимов С. Маснавий таржимасида радиф // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 5-китоб. – Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 132–153; Очилов Э. Таржимашунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, Шарқшунослик институти, 2014. – Б. 64–67.
5. Исомиддинов З. “Алдоқчи сўзлар” билан баҳс // Таржима санъати. 5-китоб. - Тошкент: 1980. – Б. 154.
6. Магтымгулы. Сайланан эсерлер. Ики томлук. 1-том. – Ашгабат, Түркменистан, 1983. – Б.240
7. Махтумкули. Танланган асарлар (Ж.Шарипов тарж.). – Тошкент, Ўзабадийнашр, 1960. – Б.133
8. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Тошкент, Ўқитувчи, 1978. – Б. 73–74.
9. Түркмен дилиниң сөзлүги. – Ашгабат, Ылымлар академиясының неширяты. Түркменистан, 1989. – Саҳ. 791.
10. Ташанов, К. Ю. (2023). БАДИЙ АСАРДА НУТҚ ВА ШЕЪРИЙ СЎЗНИНГ ИККИ ХИЛ ОБРАЗЛИЛИГИ. SCIENCE TIME JOURNAL, 1(1), 32-43.